

YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yilning yanvar-sentabrida Navoiy viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinnarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 36 661,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019-yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda 6,8 % ga o'sdi. YaHM deflyator indeksi 2019- yil yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 128,6 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YalMning shakllanishida Navoiy viloyatining qo'shgan hissasi 9,0 % ga yetdi.



Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


		Mlrd. so'm		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
		2019- yil	2020- yil	
I. YaHM		26 679,2	36 661,0	106,8
<i>shu jumladan:</i>				
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	25 826,2	36 120,6	106,8
	Mahsulotlarga sof soliqlar	853,0	540,4	107,0
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	25 826,2	36 120,6	106,8
	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	3 977,8	4 844,4	105,0
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	18 687,7	27 704,9	108,4
	Sanoat	17 577,2	26 356,7	108,9
	Qurilish	1 110,5	1 348,2	100,1
Xizmatlar		3 160,7	3 571,3	99,9

		Mlrd. soʻm		Oʼsish surʼatlari, oʼtgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2019- yil	2020- yil	
	savdo, yashash va ovqatlanish boʼyicha xizmatlar	860,0	891,5	94,6
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	522,6	583,1	103,0
	boshqa xizmat tarmoqlari	1 778,1	2 096,7	101,5

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 36 544,0 ming soʻmni tashkil etdi va bu koʼrsatkich oʼtgan yilning mos davriga nisbatan 5,0 % ga yuqoridir.



Yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va oʼsish surʼatlari



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 98,5 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,5 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 13,4 % ni, sanoat tarmog'i 73,0 % ni, qurilish 3,7 % ni va xizmatlar sohasi 9,9 % ni tashkil qildi.





Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

		2019- yil	2020- yil
	I. YaHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,8	98,5
	Mahsulotlarga sof soliqlar	3,2	1,5
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	15,4	13,4
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	72,4	76,7
	sanoat	68,1	73,0
	qurilish	4,3	3,7
Xizmatlar		12,2	9,9
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3,3	2,5
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	2,0	1,6

		2019- yil	2020- yil
--	--	-----------	-----------



	boshqa xizmat tarmoqlari	6,9	5,8
--	--------------------------	-----	-----



YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobjiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 105,0 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 13,4 %), sanoatda – 108,9 % (73,0 %), qurilishda – 100,1 % (3,7 %), xizmatlar sohasida – 99,9 % ni (9,9 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda kamayish kuzatildi - 94,6 % (2,5 %). Tashish va saqlash, axborot va aloqa 103,0 % (1,6 %), boshqa xizmat tarmoqlari 101,5 % (5,8 %) ga o'sish kuzatildi.



**Yanvar-sentabr oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**




2020- yilning yanvar-sentabrida iqtisodiyotning sanoat, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi kabi tarmoqlarida YaHMning mos ravishda 5,9 f.p. (2019- yilning yanvar-sentabrida – 1,0 f.p.) va 0,7 f.p. (2019- yilning yanvar-sentabrida 0,6 f.p.) ga o'sishiga hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning oshishi hisobiga YaHMning 0,2 f.p. ga o'sishi ta'minlandi (2019- yilning yanvar-sentabrida – 0,1 f.p.).




NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2020- yil yanvar-sentabr oylarida YaHM o'sishida tarmoqlarning hissasi



2020- yil yanvar-sentabrdan YaHM deflyatori indeksi 2019- yil yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 128,6 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 137,7 % va qurilishda – 121,3 % qayd etildi.



Yanvar-sentabr oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

